



BUXORO SHAHRI-SOMONIYLAR DAVLATI TARIXIDA

Hasanboyev To'raqul Foziljon o'g'li – Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti o'qituvchisi

Egamberdiyev Azizbek Ortiq o'g'li: Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada Somoniylar davrida Buxoro shahrining poytaxt maqomiga aylantirilishi, shaharning qurilish jihatlar haqida so'z boradi. Buxoro shahri Ismoil Somoniy davrida poytaxt bo'lib, shaharsozligi, qurilish-me'morchilik jihatlari yaxshigina rivojlanadi.

Kalit so'zlar: Buxoro tarixi, Siyovush, Somoniylar davlati, Ismoil Somoniy, Istahriy, Maqdusiy, Somonxudotlar, Buxoro devori.

Buxoro shahri Sharqning mashhur qadimiy shaharlaridan biridir. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, Buxoroga miloddan avvalgi VI asrda Afrosiyobning kuyovi Siyovush tomonidan asos solingan. Zarafshon daryosining quyi oqimida joylashgan Buxoro shahri va uning atrofidagi yerlar qadimda nihoyatda xushmanzara — hayvonot va o'simlik dunyosi betakror, ko'l va oqar suvlarga boy bo'lib, tarixchi Narshaxiyning „Buxoro tarixi“ asaridagi ma'lumotlar buni tasdiqlaydi[3. 29-31-b.].

Buxoro - Somoniylar poytaxti bo'lib, tez o'sgan va savdo hamda hunarmandchilik faoliyatining markazi bo'lib qolgan. Shahriston arablargacha bo'lgan davrda shaharning asosiy qismi- savdo-hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchi aholi joylashgan shahar atrofi-rabodlarning zinch xalqasi bilan kengayib borgan. Ularda keng bozorlar, saroylar, masjidlar, jamoat binolari paydo bo'lgan. Hayotning shahristondan rabodga ko'chib o'tishi va uning shaharning teng huquqli bir qismi deb tan olinishi VIII-XI asrlarda ro'y bergan. Bu vaqt davomida Buxoro rabodi kengayib ulgurgan va somoniylar davriga kelib ikki - ichki va tashqi devorlarga ega bo'lgan[4. 88-90-b.].

Ichki - dastlabki rabod devorlarini belgilash uchun biz ma'lumotlarga ega emasmiz. Faqat arab geograflari tomonidan qayd etilgan 11 raqami ostida darvozalar nomlari qolgan xolos.

Somoniylar Buxorosi ko'chalari ancha kengligi bilan ajralib turgan va tosh bilan yotqizilgan, bu arxeologik tadqiqotlar bilan tasdiqlangan. Ammo nisbatan keng ko'chalarga qaramay, shaharda aholi zichligi tufayli tirbandlik sezilgan. Buxorodagi



bu kamchilik somoniylar davlatining boshqa hamma shaharlaridagiga nisbatan sezilarli bo'lgan. Shu sababli ko'pincha yong'inlar sodir bo'lgan. Shaharning boshqa salbiy sifatlari ham (badbo'y hid, yoqimsiz suv va boshqalar) binolar zichligi bilan bog'liq, bularning hammasini Maqdusiy va boshqa yozuvchilar eng keskin iboralarda tasvirlaydilar[1.78-81-b.].

Shaharning erkin rivojiga qal'a devorlari to'sqinlik qilgan. Devorlarning uch qatori bilan o'ralgan (shahriston devori va rabodning ikki devori), baquvvat sitadelga ega bo'lgan Buxoro, kuchli mudofaalangan shahar bo'lgan. "Xuroson va Movarounnahrda Buxorochalik kuchli mudofaalangan va gavjum shahar yo'q", -deydi arab geografi Istaxriy[2.13-14-b.].

Shahar o'zining ko'p asrlik hayoti davomida faqat bitta umumiylar markaz atrofida kengayib, o'sha joyning o'zida qolgan. Shu tufayli shahar tarhining shakli V.Bartoldning fikricha, asosan o'zgarmagan. Uzoq o'tmishda shakllangan shahar markazlari o'sha joyning o'zida saqlangan, ko'chalar yo'nalishi ilgarigidek qolgan.

Azaldan tashkil topgan va hozirgacha shahar kompozitsiyasini belgilab beruvchi bunday me'moriy-rejaviy markazlariga shahriston ko'chalarining kesishuv joylari kirgan. Ular XVI asrda Zargaron savdo gumbazi, sitadel-ark oldidagi Xorazm (g'arbga), Romiton (shimoliy-g'arbga) va Vobkent (shimolga) yo'llari tarqalgan Registon maydoni, Labihovuz oldidagi Xuroson (janubi g'arbga), Novmiton (janubga) va Qarshi (sharqqa) ko'chalari ketgan maydonlardir[4.90-b.].

Shaharning bu uch planirovka tuginini o'zining butun uzunligi bo'ylab chorrahalarda gumbazli inshootlar bilan usti yopilgan bosh savdo ko'chasi birlashtirgan. Shahar rejasi o'zining shaklini deyarli o'zgarmas saqlagan holda shahar binolari jihatidan juda o'zgargan. Qo'rg'on inshootlari ko'p marotaba vayron bo'lgan va qayta tiklangan.

Jome masjidi - shaharning ibodat va kompozitsion markazi - shaharning kengayishi hisobiga sitadeldan shahristonga ko'chib o'tib, bir necha marotaba qayta qurilgan. Birinchi masjid arkda, zoroastriylar - olovga sig'inuvchilar ibodatxonasi o'rnida tiklangan. Tez orada uni ark chegarasidan tashqariga, shahriston yaqiniga ko'chirganlar. 1123-yilda Muhammad Arslonxon jome masjidini shahristonga - shaharning ma'muriy-siyosiy markaziga, hozirda joylashgan o'rniga olib o'tgan.

Binolarning ko'pi xom g'ishtdan va yog'ochdan tiklangan. Pishiq g'isht faqat mahobatli binolar uchun qo'llangan. Musulmonlar davrigacha Buxoroda ko'plab mahobatli binolar qurilgan. Sitadeldan tashqari somoniylarning saroy inshootlari Registonda va shahardan chiqish joylari yonidagi qal'a darvozalari yonida joylashgan. Registonda o'nta devon - hukumat rasmiy idoralari bo'lgan. Shunday



qilib, anchagina muhim inshootlar yoki hukumat markazi atrofida, sitadel yonida, yoki shahardan chiqish joyi yonida guruhlashgan, chunki uncha zikh bo'lmagan hudud saroy inshootlarini shahar chetidagi binolar turlari kabi erkin planlashtirish imkonini bergen[1.82-b.].

Somoniylar sulolasiga asoschisi Somonxudot nevaralari o'z boshqaruviga olgan Movarounnahr viloyatlari orasida Buxoro yo'q edi. Faqat yarim asr o'tgach, 874-yilda Somonxudotning 25 yoshli nabirasi, keyinchalik mashhur bo'lib ketgan Ismoil ibn Ahmad Buxorodan Husayn ibn Tohir quvilganidan so'ng bu yerda qaror topdi. Ismoil Somoniyning ko'tarilishi shu yerda boshlandi[5.].

892-yili Ismoil Somoni butun Movarounnahr hukmdori bo'lib qoldi. U taxtga o'tirishidan ancha oldin Buxoro vohasi atrofiga anchagina uzun bo'lган Kanpir devor nomli devor oldirilgan edi. Uni risoladagidek saqlab turish uchun katta mablag' va kuch talab qilingan. Ismoil Somoni vaziyatni qat'iy o'zgartirdi va qonuniy faxr bilan: "Men tirik ekanman, men-Buxoro devoriman", deb xitob qilgan[5]. Keyingi yillarda ya'ni 893-yilda u Tarozni (hozirgi Janubiy Qozog'istonda), G'arbiy Afg'oniston, Sharqiy va Markaziy Eron yerlarini o'z sultanatiga qo'shdi. Ulkan Somoniylar davlati shu tarzda barpo etilib, taxminan o'sha sarhadlarda X asr oxirlarigacha yashab keldi.

Xulosa o'rnilida aytish mumkinki, Buxoro shahrining yoshi 2500 yil bo'lib, qadim tarixdan ma'lum bir davlatlar poytaxti maqomini o'tagan. O'rta asrlarning dastlabki davrida Eftallar davlati poytaxti Buxoro vohasi hududida joylashgan. Keyingi davrlarda, jumladan Somoniylar davrida ayniqsa, Ismoil Somoni davrida Buxoro bu davlatning poytaxti maqomini amalga oshirishni boshlaydi. Ismoilning mehri tushgan Buxoro o'z tarixida ilk bor katta sultanatning poytaxti bo'lib qoldi. Somoniylar davrida Buxoro shahri har tomonlama rivojlanadi, shaharsozlik madaniyati jihatlari hayratomuz tarzda shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Ahmedov M.Q. O'rta Osiyo me'morligi tarixi. Toshkent. 1995.
- 2.Insoniyatning ilmiy va madaniy merosi — uchinchi ming yillikka (1997-yil 18-20-oktabr, Buxoro-Xiva). Toshkent. 1997.
- 3.Narshaxiy. Buxoro tarixi. Toshkent. 1966.
- 4.Qodirova T., Lavrov, V., Mamatmusayev T. O'rta Osiyo shaharsozlik madaniyati. Toshkent. 2014.
5. www.Wikipedia.uz. Internet sayti